

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



UMUMIY PEDAGOGIKA  
FANING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

**Ta‘lim sohasi:** 310 000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar

**Ta‘lim yo‘nalishi:** 60310300 – Psixologiya

Toshkent–2025

Amaliy fanlar fakulteti dekani:



Vaxidov A.A.

“Pedagogika va psixologiya”  
kafedrasi mudiri:



Abdullaeva Sh.X.

ARM boshligi:



Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi UPED1508		O'quv yili 2027/2028	Semestr 5	ECTS — Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Umumiy pedagogika	96	144	240	
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda pedagogik jarayonning nazariy va amaliy asoslarini chuqur anglash, shaxs rivojlanishi va ta'lim–tarbiya qonuniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qila olish, pedagogik faoliyatning mazmuni, vazifalari va funksiyalarini puxta egallash hamda kelajak kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan umumiy va kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarga pedagogik jarayonning asosiy tushunchalari, kategoriyalari va qonuniyatlarini ilmiy tahlil qilishga o'rgatish; ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlarini amaliy misollar orqali anglash ko'nikmasini shakllantirish; pedagogik muammoni aniqlash, tahlil qilish va yechim ishlab chiqish malakasini rivojlantirishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Kembridj universiteti (THE 3), Garvard universiteti (THE 5) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://www.educ.cam.ac.uk/courses/undergrad/course-structure/">https://www.educ.cam.ac.uk/courses/undergrad/course-structure/</a>  <a href="https://courses.my.harvard.edu/dw_course/hgse_crse_cat.pdf">https://courses.my.harvard.edu/dw_course/hgse_crse_cat.pdf</a></p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Zamonaviylik, globallashuv va ta'lim</b></p> <p>Zamonaviylik, globallashuv va ta'lim mavzusi innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli va media savodxonlik, madaniyatlararo kommunikatsiya, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'nalishlari; globallashuv sharoitida pedagogning liderlik vazifasi, talabani shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va global kompetensiyalarni shakllantirish; ta'lim jarayonlarini tahlil qilishda muhim bo'lgan sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot kabi yordamchi fanlar, shuningdek tizimli yondashuv, komparativ tahlil, monitoring va pedagogik diagnostika metodlari. Raqamli ta'lim trendlari</p>				

sifatida sun'iy intellektga asoslangan o'qitish, adaptiv platformalar, ochiq ta'lim resurslari, xalqaro dasturlar va akademik mobillik ko'rsatkichlari.

### **2-mavzu. Pedagogika fanining predmeti va vazifalari.**

Pedagogika fanining obykti va predmeti. Pedagogika fanining vazifalari va funksiyalari. Huquqiy, demokratik, mustaqil davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurishning moddiy va ma'naviy asoslarini o'zlashtirish jarayonini o'rganuvchi fan sifatida pedagogikaning ustuvorligi. Ijtimoiy fanlardagi o'zgarishlarning pedagogik va tarbiyaviy jarayonga ta'siri.

Pedagogika fanlarining tuzilmasi. Pedagogikaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Pedagogika fanini rivojlantirishning ilmiy va amaliy asoslari.

### **3-mavzu. Pedagogik tadqiqot usullari.**

Pedagogik jarayon va ixtisoslashuv. "Pedagogik jarayon" tushunchasining mazmun-mohiyati. Ma'naviy-insoniy fazilatlar va ularning shakllanishi. Insonning ichki olami, tashqi faoliyati.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot usullari: pedagogik kuzatuv, tadqiqot suhbatlari, maktab hujjatlari va o'quvchilar faoliyati natijalarini o'rganish, pedagogik tajriba, ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, sotsiologik tadqiqot usullari (so'rovnoma, reyting, ekspert baholash usuli), matematik statistika usullari, pedagogik g'oyalarning nazariy tahlili. Tadqiqot usullarining takomillashuvi pedagogika nazariyasini rivojlantirish sharti sifatida. Milliy istiqloq g'oyasi, milliy mafkurani tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari.

### **4-mavzu. Pedagogika faning rivojlanish tarixi**

Pedagogika tarixi – umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Pedagogik g'oyalarning rivojlanish bosqichlari. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Ibtidoiy jamiyatda tarbiyaning o'ziga xususiyatlari. Xalq og'zaki ijodida tarbiya masalalari. «Avesto»ning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida tarbiya va maktab. Sharq uyg'onish davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya tarqqiyoti. Hadis ilmni paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy v.b.)ning hadis ilmining rivojiga qo'shgan hissasi.

Sharq allomalarining (Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino) ilmiy merosi va pedagogik qarashlari. Temuriylar davrida madaniyat va ta'lim-tarbiya rivoji. Ijtimoiy-siyosiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. G'arb uyg'onish davrida maktab va pedagogik g'oyalar rivoji. G'arbiy Yevropada universitet va ta'limning rivojlanishi. Yan Amos Komenskiyning pedagogik ta'limoti.

### **5-mavzu. Siyosat va ta'limdagi o'zgarish: real holatlarni tahlil qilish**

Ta'lim siyosatining shakllanish mexanizmlari, davlat tomonidan qabul qilinayotgan islohotlarning mazmuni va ularning ta'lim tizimiga ta'sirini o'z ichiga oladi; ta'limdagi boshqaruv strategiyalari, sifat nazorati tizimlari, resurslar taqsimoti, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar masalalari (E. Dyurkgeym, M. Veber, Dj. Rolz) asosiy nazariy manbalar sifatida. Milliy ta'lim siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar, global reytinglar va xalqaro tadqiqotlar (PISA, TIMSS, TALIS) natijalarining ta'lim amaliyotiga ta'siri, shuningdek ta'lim muassasalarida islohotlarning real amalga oshirish jarayonlari, mavjud muammolar va ularning ijtimoiy-pedagogik oqibatlari. Ta'lim siyosati, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va maktabning funksiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek ta'lim tizimining modernizatsiyasi.

### **6-mavzu: Ta'limdagi distopiyalar va utopiyalar**

Ta'lim jarayonining idealistik, mukammal modelini ifodalovchi utopik g'oyalar (T. Mor, F. Bekon, J.-J. Russo, Dj. Dyui); ta'limni nazorat, ijtimoiy tengsizlik va shaxs erkinligining cheklanishi bilan talqin qiluvchi distopik yondashuvlar (O. Xakslı, Dj. Oruell, N. Postman). Ta'limning kelajagi haqidagi falsafiy va sotsiologik qarashlar (E. Fromm, 3. Bauman, P. Freyre), raqamli muhitda yuzaga kelayotgan xavf va imkoniyatlar (M. Kastels, N. Karr), o'quvchilarning identiteti va mustaqilligiga ta'sir etuvchi global tendensiyalar hamda ta'lim tizimida utopik va distopik tasavvurlarning pedagogik strategiya va mazmunga ta'sir.

### **7-mavzu. Rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Yosh va individual xususiyatlarga ko'ra rivojlanish.**

Insonning shakllanishida irsiyat, biologik muhit va tarbiyaviy omillarning o'rni, bola shaxsiyatining rivojlanish sharoitlari. Bolaning rivojlanishiga genetik, fiziologik va psixologik omillarning ta'siri. Shaxsning ijtimoiylashuvi va atrof-muhitning bola rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri.

Shaxs tarbiyasida genetik, fiziologik va psixologik asoslardan foydalanish. Chaqaloqlik (bir yoshgacha), go'daklik (1-3 yosh), maktabgacha (3-6 yosh), boshlang'ich maktab (6-11 yosh), o'smirlik (11-14 yosh), ilk o'spirinlik (14-17 yosh) va yetuklik (17-25 yosh) davrlarining psixologik o'ziga xosligi va fiziologik xususiyatlari, ularni hisobga olish, ta'lim va tarbiyani tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Axloqiy va xulq-atvor tarbiyasining amaliy xususiyatlaridan foydalanish.

Tarbiyada shaxs shakllanishining irsiy-biologik, fiziologik va psixologik asoslarining mohiyati hamda o'rni, tadqiqot natijalari talabalar guruhlarida munozara shaklida o'rganiladi.

### **8-mavzu. Pedagogik jarayon.**

Tizim sifatidagi pedagogik jarayon. Pedagogik jarayonning yaxlitligi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari. Pedagogik jarayon bosqichlari.

Pedagogik jarayonni ma'naviy his-tuyg'ular va kechinmalar asosida amalga oshirish. Milliy g'oya va milliy mafkuraning asosini tashkil etuvchi ma'naviy fazilatlar: bilim, aql, insonparvarlik, donolik, kamtarlik, ma'rifatlilik. Ma'naviy-axloqiy inqirozlar. Umumiy va shaxsiy maqsad hamda ma'no, faoliyat va mehnatda haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi. Psixologik omillar va insoniy fazilatlar.

Xulq-atvor. Intizom va axloq. Axloq-odob. Madaniyat. Muloqot madaniyati, shaxsiy gigiyena. Bilim olish madaniyati. Sharq madaniyati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va betakrorligi. Ma'naviyat. Erkinlik va mas'uliyat.

Mehnat insonning genetik va fiziologik ehtiyoji sifatida bolalarning birinchi yoshidan boshlab ijodiy faoliyatini shakllantirish. Bolalarning faoliyatga bo'lgan qiziqishi, imkoniyatlari, qobiliyatlarini aniqlash zarurati. Faoliyatga munosabati yoshlikdan o'rgatish zarurligi.

### **9-mavzu. O'yin, ijodkorlik va tasavvur**

O'yin faoliyatining shaxs rivojlanishidagi psixologik-pedagogik ahamiyati, ijodkorlikning shakllanish mexanizmlari va tasavvurning kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi. Bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishida ramziy o'yinlar (L. Vygotskiy, D. Elkonin), ijodiy fikrlash jarayonlari (Dj. Gilford, E. Torrens) va tasavvurning rivojlanish bosqichlari (J. Piaje). O'yin orqali ijtimoiy rollarni modellashtirish, kreativ muhit yaratish, divergent fikrlashni kengaytirish, shuningdek raqamli o'yinlar va interfaol vositalarning ijodkorlik hamda tasavvurni qo'llab-quvvatlovchi imkoniyatlari. Shaxsning emotsional, kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda o'yin, ijodiy mashg'ulotlar va tasavvurga asoslangan faoliyatning integrativ ta'siri.

### **10-mavzu. Tarbiya nazariyasi.**

«Tarbiya», «o'z-o'zini tarbiyalash», «qayta tarbiyalash» tushunchalari. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya jarayonining tizimlari va tuzilishi. Tarbiya jarayonining umumiy qonuniyatlari. Tarbiya qonuniyatlarining tavsifi. Tarbiya tamoyillarining tavsifi.

Umumiy tarbiya metodlari tizimi. Pedagogikada o'quvchilarni tarbiyalashda insonparvarlik yondashuvini joriy etish va avtoritar usullardan voz kechish. Ishontirish tarbiyaning eng muhim usuli sifatida. Ijodiy namuna ko'rsatish metodi. Mashq qildirish (o'rgatish) usuli. Maqtash va tanbeh berish metodlari.

Xulq-atvorni talab qilish va nazorat qilish usullari. Faoliyatni o'zgartirish metodi. Tarbiya metodlaridan kompleks foydalanish.

### **11-mavzu. Tarbiya turlari. Fazilatini rivojlantirishning genderga xos jixatlari**

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish. O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari, metodlari. Yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining asosiy maqsadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi va vazifalari, shakl va metodlari. «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya»si mazmuni. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida mediata'limni o'rni. O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya – mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida.

O'zbek jamiyatida ayol obrazining tarixiy va ma'naviy pozitsiyasi (Onalik, burch, fidoyilik).

### **12-mavzu. Tolerantlik, diniy bag'rikenglik va vatanparvarlikni tarbiyalash**

Tolerantlik tushunchasi. Shaxsning sotsiotolerantlik madaniyati shakllanganlik mezonlari. Zamonaviy sharoitda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalashning ahamiyati. Oila, maktab va davlatning fuqarolarda ijtimoiy tolerant ongni shakllantirishdagi imkoniyatlari. Fuqarolik, vatanparvarlik va internatsionalizmni tarbiyalash. Ushbu yo'nalishlarni rivojlantirishning shakl va metodlari.

### **13-mavzu. Ta'limiy g'oyalarning tadqiqi**

Ta'lim nazariyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va pedagogik fikr evolyutsiyasini o'z ichiga oladi; ta'lim jarayonining mohiyati, maqsadi va tamoyillariga oid klassik va zamonaviy nazariy yondashuvlar (Y. A. Komenskiyning didaktik tizimi, I. Pestalotssi va F. Frebelning g'oyalari, J.-J. Russo va Dj. Dyuning tajribaga asoslangan ta'lim konsepsiyalari). Mavzuda konstruktivizm (J. Piaje, L. Vigotskiy), pragmatizm va progressivizm (Dj. Dyui), tanqidiy pedagogika (P. Freyre), shuningdek kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va umrbod ta'lim nazariyalarining mazmuni. Ta'limiy g'oyalarning jamiyat taraqqiyoti, madaniy kontekst va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liqligi, ta'lim nazariyasining amaliy jarayonga ta'siri hamda zamonaviy pedagogik qarashlarning innovatsion ta'lim modelidagi o'rni.

### **14-mavzu. Ta'lim mazmuni**

Maktab ta'limi mazmunining mohiyati. Ta'lim mazmunini shakllantirish manbalari va omillari. Ta'lim mazmunini tanlashning asosiy tamoyillari va

mezonlari. Maktab ta'limi mazmunini ta'lim to'g'risidagi asosiy me'yoriy hujjatlarda amalga oshirish. Davlat ta'lim standartlarining (shu jumladan o'quv rejasining) tavsifi.

Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejaları va dasturlarning maktab ta'limi mazmunining zamonaviy holati bilan o'zaro bog'liqligi. Ta'lim dasturlari turlarining qisqacha tavsifi. Darslik ta'lim jarayonining kompleks axborot modeli sifatida. Darslik mazmunining asosiy tarkibiy qismlari va unga qo'yiladigan talablar.

### **15-mavzu. Ta'lim metodlari, shakllari va vositalari**

Ta'lim metodlari, vositalari va shakllarining mohiyati. O'qitish metodlarining takomillashuvi. Ta'lim vositalari va shakllarining tarixiy rivojlanishi.

Ta'lim metodlari, shakllari va vositalarining tasniflanishi. Turli o'qitish usullarini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining mazmuni.

XXI asrda sinf-dars tizimini tashkil etish shakllarining tipologiyasiga turlicha yondashuvlar.

O'qitish vositalarini (shu jumladan, texnik vositalarni) qo'llash uslublari. O'quv xonasini jihozlash. Samarali ta'lim usullarini (jumladan, bilish, ijodiy va tashkiliy-faoliyat) ajratib ko'rsatishga zamonaviy yondashuv.

### **16-mavzu: Dars ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida**

Dars an'anaviy ta'limning asosiy shakli sifatida. Darslar tipologiyasi. Darsning tuzilishi va uning uslubiy tuzilmasi. O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Mashg'ulotlar tizimini tuzish (mavzuiy rejalashtirish). Darsning maqsadi va uning bosqichlarini belgilash. Darsda o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari, ularning qisqacha tavsifi.

Darsda ta'lim usullari va vositalaridan foydalanish xususiyatlari. Dars tahliliga turli yondashuvlar. Darsni tahlil qilish va o'z-o'zini baholash. An'anaviy ta'lim darslari va ijodiy darslarni taqqoslash. Turli xil ijodiy darslarning tavsifi. Ijodiy darslarni ishlab chiqish xususiyatlari.

### **17-mavzu. Ta'lim, sun'iy intellekt va jamiyat.**

Ta'lim, sun'iy intellekt va jamiyat ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi, ularning pedagogik strategiyalar, o'quv jarayonining individuallashtirilishi va ta'lim sifati bilan bog'liq jihatlariga taalluqli nazariy va amaliy yondashuvlar; adaptiv o'quv tizimlari, algoritmik baholash, o'quv jarayonini raqamli kuzatish va o'quvchi profillari yaratish

imkoniyatlari (E. Toffler, M. Kastels, K. Shvab) zamonaviy konsepsiyalar sifatida. AI orqali shakllanayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, inson-mehnat munosabatlarning transformatsiyasi, raqamli tengsizlik, algoritmik tarafkashlik, ma'lumotlar xavfsizligi va etik masalalar (N. Bostrom, L. Floridi) bilan bog'liq ta'sirlar ko'rib chiqiladi. Ta'lim, jamiyat va texnologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, AI asosida shakllanayotgan yangi kompetensiyalar, mas'uliyatli innovatsiya tamoyillari hamda o'qituvchi rolidagi o'zgarishlarning nazariy asoslari mavzuning asosiy tarkibini tashkil etadi.

### **18-mavzu. Oila pedagogikasi**

Oila pedagogikasi mavzusi oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, uning pedagogik funksiyalari va bola shaxsining shakllanishidagi o'rni o'z ichiga oladi; oilaviy munosabatlar tizimi, tarbiya usullari va oila muhitining emotsional-psixologik xususiyatlari shaxs rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida talqin qilinadi. Mavzuda ota-onalarning pedagogik madaniyati, oiladagi kommunikativ muhit, tarbiyaviy tamoyillar va oilaning ijtimoiy institut sifatidagi roli; shuningdek, oila — maktab — jamiyat o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning mazmuni va mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Bola shaxsini barkamol tarbiyalashda sog'lom oilaviy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, genderga sezgir yondashuv va psixologik-pedagogik yordamning ahamiyati alohida o'rin tutadi.

### **19-mavzu. Oila pedagogik o'zaro ta'sir subyekti va ijtimoiymadaniy muhit sifatida**

Oila ijtimoiylashuvning boshlang'ich instituti sifatidagi o'rni, bola taraqqiyotida mikro-muhitning pedagogik funksiyalarini hamda oilaning ijtimoiy muhit sifatidagi ahamiyati; oilaning kommunikativ, axloqiy, emotsional va madaniy resurslari shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil. Oilaviy tarbiya jarayonining mazmuni, uning shaxsning ijtimoiy faolligi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'siri, shuningdek oilaning tarbiyaviy potentsiali bilan maktab va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Oilaviy tarbiyaning sog'lom kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik, hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishga qo'shadigan hissasi.

### **20-mavzu. Ijtimoiy pedagogika**

Ijtimoiy pedagogika tushunchasi va predmeti. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni va uni qo'llab-quvvatlash. Mikro- va makromuhit omillarining shaxs

rivojiga ta'siri. Oila, maktab, mahalla va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyalari. Ijtimoiy xavf guruhidagi bolalar bilan ishlash tamoyillari. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyat yo'nalishlari: profilaktik ishlar, korreksion ishlar, reabilitatsion ishlar. Ijtimoiy-pedagogik yordamning modeli va prinsiplari. Ijtimoiy tengsizlik, oilaviy inqirozlar, gender tafovutlari, migratsiya va inklyuziv ta'lim kabi ijtimoiy omillarning ta'siri. Media-muhitning bolalar va o'smirlar ijtimoiylashuviga ta'siri. Shaxsning ijtimoiy moslashuvi, himoyasi va farovonligini ta'minlash mexanizmlari.

### **21- mavzu. Bola ijtimoiylashuvining mohiyati, omillari va mexanizmlari.**

Bolaning ijtimoiylashuvi tushunchasi va uning mohiyati. Shaxsning jamiyatga moslashuvi jarayonining bosqichlari. Ijtimoiylashuvning asosiy omillari: oila, maktab, tengdoshlar guruhi, OAV va raqamli muhit, madaniy va milliy an'analar. Mikro- va makromuhitning shaxs rivojiga ta'siri. Ijtimoiylashuv mexanizmlari: taqlid, identifikatsiya, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, kommunikativ jarayonlar, o'yin faoliyati. Bolaning ijtimoiy tajribani egallash jarayoni. Noto'g'ri ijtimoiylashuv xavflari va ularni oldini olish. Pedagogning ijtimoiylashuvni qo'llab-quvvatlashdagi roli.

### **22-mavzu. Kreativ pedagogika**

Kreativ pedagogika tushunchasi va uning zamonaviy ta'limdagi o'rni. Kreativ fikrlashning psixologik-pedagogik asoslari. O'quv jarayonida kreativ yondashuv va innovatsion metodlar. Ta'lim muhitida ijodkorlikni rag'batlantiruvchi omillar. Divergent fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. Kreativ topshiriqlar, loyiha faoliyati va muammoli vaziyatlar. O'qituvchining kreativ kompetensiyasi va kreativ muhit yaratish tamoyillari. Kreativ pedagogikaning amaliy misollari va samaradorlik ko'rsatkichlari.

### **23-mavzu. Inklyuziv ta'lim**

Inklyuziv ta'lim tushunchasi va asosiy tamoyillari. Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limga qo'shilishi jarayoni. Individual ta'lim dasturlari (ITD) va diferensial yondashuv. Inklyuziv sinfda pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash. O'qituvchining inklyuziv kompetensiyasi va kasbiy mas'uliyati. Ota-ona, maktab va mutaxassislar (defektolog, logoped, psixolog) hamkorligi. Barqaror ijtimoiy muhit yaratish va stigmani kamaytirish yo'llari. Inklyuziv ta'limning mahalliy va xalqaro tajribasi.

## 24- mavzu. Qiyosiy pedagogika

Qiyosiy pedagogika fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari. Turli davlatlarning ta'lim tizimlarini solishtirish tamoyillari. Ta'lim siyosati, o'quv dasturlari va boshqaruv tizimlaridagi farqlar. Xalqaro ta'lim tadqiqotlari (PISA, TIMSS, TALIS) natijalarini tahlil qilish. Rivojlangan mamlakatlar ta'limidan olinadigan ilg'or tajribalar. Ta'lim muammolarining global kontekstdagi ko'rinishlari. Qiyosiy tahlil orqali ta'lim sifatini baholash imkoniyatlari. O'zbekiston ta'lim tizimining boshqa davlatlar bilan solishtirilgan xususiyatlari.

### III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Umumiy pedagogika" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Umumiy pedagogika" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Globallashtirish sharoitida ta'lim trendlarini tahlil qilish
2. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari va uning bugungi jamiyatdagi o'rni
3. Pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlar
4. Sharq allomalari pedagogik merosi: hozirgi ta'limga ta'siri
5. Ta'lim siyosati bo'yicha islohot holatlarini tahlil qilish
6. Ta'limdagi utopik va distopik ssenariylarni modellashtirish
7. Inson rivojlanishining yosh va individual xususiyatlarga ko'ra shakllanishi
8. Pedagogik jarayonning yaxlit tizim sifatida shakllanishi va amalga oshirilishi
9. O'yin, ijodkorlik va tasavvurning bolalar rivojidagi o'rni va ahamiyati
10. Tarbiya jarayoniga ta'luqli keyslarni tahlil qilish
11. Tarbiya turlarining pedagogik asoslari va ularni amaliy loyihalashtirish
12. Tolerantlik, diniy bag'rikenglik va vatanparvarlikni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari
13. Ta'limiy g'oyalarni qiyosiy tahlil qilish
14. Ta'lim mazmunini loyihalashtirish nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari
15. O'quv jarayoni tizimi: integratsiyalashgan o'qitish modelini muhokama qilish
16. Ta'lim metodlari: samaradorlik shartlari va turli yondashuvlar

17. Ta'lim va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirning pedagogik jihatlarda namoyon bo'lishi
18. Oila pedagogikasining mazmuni va oilaning tarbiyadagi imkoniyatlari
19. Oila ijtimoiy-madaniy muhit sifatida bola ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'siri
20. Ijtimoiy pedagogikaning mazmuni va shaxsning ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari
21. Bola ijtimoiylashuvining mohiyati, omillari va shakllanish mexanizmlari
22. Kreativ pedagogikaning mazmuni va ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari
23. Inklyuziv ta'limning mazmuni va maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari
24. Qiyosiy pedagogikaning mohiyati va turli mamlakatlar ta'lim tizimlarini solishtirish imkoniyatlari

#### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

##### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va yakuniy nazoratga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- loyiha ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**“Umumiy pedagogika” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan**

	<p>berilishi tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Globallashuv sharoitida pedagogning liderlik kompetensiyalari: xalqaro tajribalar tahlili</li> <li>2. Raqamli va media savodxonlik: XXI asr o'qituvchisi uchun zarur global kompetensiya sifatida</li> <li>3. Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga ta'siri: imkoniyatlar, xavflar va etik muammolar</li> <li>4. PISA, TIMSS va TALIS kabi xalqaro baholashlar: ularning ta'lim siyosatiga real ta'siri</li> <li>5. Utopik va distopik ta'lim modellarining zamonaviy ta'lim tizimidagi aks sadosi</li> <li>6. Global tendensiyalar sharoitida o'quvchilarning identiteti va mustaqilligi</li> <li>7. Pedagogika fanining tarixiy rivojlanishi: Sharq va G'arb yondashuvlari taqqoslanishi</li> <li>8. Sharq allomalari pedagogik merosining zamonaviy ta'limga ta'siri</li> <li>9. O'yin, ijodkorlik va tasavvur: bolaning rivojlanishida kognitiv va ijtimoiy mexanizmlar</li> <li>10. Tarbiya jarayonining psixologik va pedagogik qonuniyatlari: zamonaviy talqinlar</li> <li>11. Genderga sezgir tarbiya: o'quvchilarda fazilatlar shakllanishining gender xususiyatlari</li> <li>12. Ta'limiy g'oyalarning evolyutsiyasi: konstruktivizm, pragmatizm va tanqidiy pedagogika taqqoslanishi</li> <li>13. Ta'lim mazmunining modernizatsiyasi: DTS, o'quv rejalari va darsliklar tahlili</li> <li>14. Ta'lim metodlarining innovasion transformatsiyasi: raqamli resurslar va interfaol texnologiyalar</li> <li>15. Darsning zamonaviy modeli: an'anaviy, kompetensiyaga yo'naltirilgan va kreativ darslarning tahlili</li> </ol> <p>(Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi)</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• pedagogikaning predmeti, obykti, metodlari va asosiy tushunchalari;</li> <li>• shaxs rivojlanishi, ta'lim-tarbiya jarayoni va ijtimoiy muhit omillari;</li> <li>• pedagogik tamoyillar, shakllar, vositalar, metodlar;</li> <li>• zamonaviy ta'lim texnologiyalari va baholash usullari;</li> <li>• psixologik-pedagogik tahlil va loyihalash asoslarini <b>bilishi kerak</b>;</li> <li>• pedagogik ta'sir ko'rsatish va samarali muloqot yuritish;</li> <li>• mashg'ulot va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash va o'tkazish;</li> <li>• pedagogik vazifalarni tahlil qilish va hal etish;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• individual ta'lim ishlarini yo'lga qo'yish;</li> <li>• bilimlarni amaliy holatlarga tatbiq etish <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>;</li> <li>• dars va tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;</li> <li>• interfaol va innovatsion texnologiyalarni qo'llash;</li> <li>• o'quv jarayonini baholash va monitoring qilish;</li> <li>• pedagogik muloqotni boshqarish va ijobiy muhit yaratish;</li> <li>• insonparvarlik va individual yondashuvni amaliyotda qo'llash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• videomahsulotlardan foydalanish;</li> <li>• grammatik-tarjima metodi;</li> <li>• audiovizual metod;</li> <li>• namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• rolli o'yinlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoaviy loyihalar;</li> <li>• event texnologiya;</li> <li>• tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar;</li> <li>• organayzer (Klaster, Baliq skeleti, Ajurli arra, FSMU, Bumerang, Insert, BBB)lar;</li> <li>• infografikalar yaratish va boshqalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi: o'quv qo'llanma /– Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. - 272 b.</li> <li>2. Ипатов А. В. Педагогика: Учебное пособие /– Санкт-Петербург : РГГМУ, 2023. – 156 с.</li> <li>3. Pedagogika va ta'lim. O'quv qo'llanma/ Urishov Sh.M. -T., TDSHU 2024</li> <li>4. Umumiy pedagogika: o'quv qo'llanma/ Xaydarova R.A. -T.: Bookmany print, 2025.-254 b.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent:</li> </ol>

O'zbekiston, 2023

7. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
9. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
10. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / U.M. Askarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov, 2008. - 287 b
11. Botirova D.B. “Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi”, Darslik. T, 2021y
12. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi: (Bakalavriaturaning 140000 “O'qituvchilar tayyorlash” va “Pedagogika” fani soxasi yo'nalishlari uchun uquv qullanma) / A. Zunnunov, 2006. - 164
13. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi: O'quv qo'llanma.T.: “Fan va texnologiya” 2008
14. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar - Toshkent, “Fan”, 2001.
15. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, “O'qituvchi”, 2001.
16. Педагогика. Под ред. В.А. Слостенни. Учебное пособие- Москва, “Владос”, 2013.
17. Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Педагогика: Учебно-методическое пособие.-Т.:ТашГИВ, 2015
18. Утёмов В. В., Зиновкина М. М., Горев П. М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества: Учебное пособие. – Киров: АНОО «Межрегиональный ЦИТО», 2013. – 212 с.
19. Прокофьева, О.О. Педагогика: практикум с использованием методов и приемов технологии развития критического мышления: учеб.-метод. пособие для студентов специальности «Социальная работа» / «МГУ им, АЛ. Кулешова», 2009. - 240 с.
20. Xaydarova R.A. Katta auditoriyalarda talaba o'quv natijalarini baholash:nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti – Toshkent: 2025 y. 147 b.
21. Xaydarova R.A. Loyiha ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar dasturi: O'quv-uslubiy ko'rsatma. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti – Toshkent: 2025 y. 126 b.

#### Scopusdan maqolalar

22. 1. Dilafruz Bozorovna Botirova, Markhabo Raxmonkulovna Abdullayeva, Ilkhom Yusupovich Khaydarov, Ra'no Anvarovna Khaydarova, Shaxnoza Sharofovna Sharofova// Social Psychological Features of the Process of Professional Stress  
<https://powertechjournal.com/index.php/journal/issue/view/28>
23. Kasneci, E., Sessler, K., Kuchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., Gasser, U., Groh, G., Ginnemann, S., Hüllermeier, E., Krusche,

048

	<p>S., Kutyniok, G., Michaeli, T., Nerdel, C., Pfeffer, J., Poquet, O., Sailer, M., Schmidt, A., Seidel, T., Stadler, M., Weller, J., Kuhn, J., &amp; Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. <i>Learning and Individual Differences</i>, 103, 102274. <a href="https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274">https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274</a></p> <p>24. Ayanwale, M. A., Sanusi, I. T., Adelana, O. P., Aruleba, K. D., &amp; Oyelere, S. S. (2022). Teachers' readiness and intention to teach artificial intelligence in schools. <i>Computers and Education: Artificial Intelligence</i>, 3, 100099. <a href="https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100099">https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100099</a></p> <p>25. R. A. Khaydarova, D. B. Botirova, N. Rasulova, Zio O. Rashidova, D. R. Saitkhanova &amp; S. R. Kamalova (2025). The Role of Critical Thinking and Soft Skills in Enhancing the Social Activity of Female Students. <i>TPM - Testing, Psychometrics, Methodology in Applied Psychology</i> (ISSN:1972-6325) <a href="https://www.tpmapp.org/">https://www.tpmapp.org/</a></p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>26. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></p> <p>27. <a href="http://www.ziyo.net">www.ziyo.net</a></p> <p>28. <a href="http://www.uzsci.net">www.uzsci.net</a></p> <p>29. <a href="http://www.zipsites.ru/books/index">www.zipsites.ru/books/index</a>.</p> <p>30. <a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a></p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 yil "26" 06 dagi 11 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Xaydarova R.A.— TDSHU Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi.</li><li>2. Murodullayev N.B.- TDSHU Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi.</li></ol>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Rashidova Z.O.— O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi , PhD.</li><li>2. Maxkamova S.X. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Pedagogika va psixologiya katta o'qituvchisi, p.f.n.</li></ol>